HAMKORLIKDAGI TOPSHIRIQLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING TINGLASH VA GAPIRISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Zokirjonova Munavvara Zohidjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi, pedagogika nazariyasi yo‘nalishi
1-bosqich magistranti
E-mail: munavvarazokirjonova555@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-4539-2448

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24185339***

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ingliz tili darslarida hamkorlikka asoslangan topshiriqlar orqali yuqori sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari yoritiladi. Tinglash va gapirish ko‘nikmalarining o‘zaro uzviyligi hamda ularning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, hamkorlikda o‘qitishning nazariy asoslari va ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi. Xususan, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish, savol-javob hamda muammoli vaziyatlarni muhokama qilish kabi topshiriqlarning o‘quvchilar nutqiy faolligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan maqsadli foydalanish ingliz tili ta’limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim metodik omili sifatida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *hamkorlikda o‘qitish, tinglab tushunish, og‘zaki nutq, juftlikda ishlash, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faollik, fikrni bayon etish.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются педагогические аспекты развития навыков аудирования и устной речи учащихся старших классов посредством заданий, основанных на сотрудничестве, на уроках английского языка. Анализируются взаимосвязь аудирования и говорения, а также их значение для формирования коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется теоретическим основам обучения в сотрудничестве и его дидактическим возможностям. Рассматривается влияние таких заданий, как работа в парах и малых группах, обмен мнениями, вопросы и ответы, а также обсуждение проблемных ситуаций, на речевую активность учащихся. Обосновывается, что целенаправленное использование заданий, основанных на сотрудничестве, является важным методическим фактором развития коммуникативной компетенции при обучении английскому языку.*

Ключевые слова: *обучение в сотрудничестве, аудирование, устная речь, работа в парах, коммуникативная компетенция, речевая активность, выражение мыслей.*

Abstract. *This thesis examines the pedagogical aspects of developing upper secondary school students’ listening and speaking skills through collaborative tasks in English language lessons. It analyses the interrelationship between listening and speaking and their role in developing communicative competence. Particular attention is paid to the theoretical foundations of cooperative learning and its didactic potential. The thesis considers how pair work, small-group activities, exchanging ideas, question-and-answer tasks, and discussions of problem situations can*

influence students’ oral participation. It argues that the purposeful use of collaborative tasks is an important methodological factor in developing communicative competence in English language teaching.

Keywords: *cooperative learning, listening comprehension, speaking skills, pair work, communicative competence, oral participation, expressing ideas.*

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilga oid bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularda ushbu bilimlardan kundalik hayotda erkin foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, til o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun tinglab tushunish, suhbatda ishtirok etish va o‘z fikrini erkin bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tili darslarida listening (tinglab tushunish) va speaking (gapirish) ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy muloqot jarayonida tinglash va gapirish bir-birini uzluksiz to‘ldirib boradi: o‘quvchi suhbatdoshidan olgan axborotni idrok etadi, uning mazmunini anglaydi, muhim jihatlarini tahlil qiladi va unga mos ravishda og‘zaki javob shakllantiradi. Bu borada 2010-yilda Procedia – Social and Behavioral Sciences jurnalida chop etilgan “Integrating Listening and Speaking Skills to Facilitate English Language Learners’ Communicative Competence” nomli tadqiqot e’tiborga loyiq. Mazkur tadqiqotda Turkiyadagi Hacettepe universitetida tahsil olayotgan 180 nafar talaba ishtirok etgani va tinglash hamda gapirishni integratsiyalashgan holda o‘rgangan guruh ushbu ko‘nikmalarni alohida o‘rgangan guruhga nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatgani qayd etilgan [1].

Listening va speaking ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatish bilan bir qatorda, hamkorlikda ishlash va kichik guruhlarni tashkil etishning o‘quvchilar nutqiy faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rib chiqish ham muhimdir. Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun grammatik qoidalarni bilishning o‘zi yetarli emas. Bunda o‘quvchining o‘ziga ishonchi, xorijiy tilda muloqot qilish bilan bog‘liq psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishi, suhbatga kirishishga tayyorligi va o‘z fikrini mustaqil ifodalashi ham muhim o‘rin tutadi.

Shu jihatdan hamkorlikda o‘qitish usullaridan foydalanish samarali metodik imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash o‘quvchiga nisbatan qulay muloqot muhitini yaratib, fikr bildirish, muhokama qilish va tinglangan axborotni tahlil etish imkonini beradi. Bunday faoliyat o‘quvchilarning ingliz tilida muloqot qilishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashi va darsdagi faolligini oshirishi mumkin. Hamkorlikda o‘qitishning nazariy asoslarini L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy ta’lim qarashlari bilan bog‘lash mumkin. Uning yondashuvida o‘rganish jarayonida ijtimoiy munosabatlar va boshqalar bilan o‘zaro ta’sir muhim o‘rin tutadi [2].

David W. Johnson va Roger T. Johnson (2009) hamkorlikda o‘qitishning nazariy asoslarini ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi bilan izohlaydi. Mualliflar hamkorlikka asoslangan ta’lim samaradorligini nazariya, ilmiy tadqiqot va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi bilan bog‘laydi [3]. Bu qarash ingliz tili darslarida juftlikda va kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning pedagogik asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy til ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yoshdagi o‘quvchilar turli mavzularda fikr yuritish, o‘z qarashlarini bildirish va boshqalarning fikriga munosabat bildirish

imkoniyatiga ega. Komilova M. A. o‘z tadqiqotida 10–11-sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi dialogik nutqini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyatini yoritib, ularda erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi [4]. Shuningdek, Axmedova N. va Abdusaidova G. hamkorlikda o‘qitishning til o‘zlashtirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi [5]. Mazkur qarashlar ingliz tili darslarida tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini hamkorlikka asoslangan topshiriqlar orqali integrativ rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Masalaning muhim jihati shundaki, o‘quvchilarni guruhlarga ajratish yoki hamkorlikda ishlashning o‘zi yetarli emas. O‘quvchilarning til bilish darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos topshiriqlar majmuasini tanlash hamda ulardan bosqichma-bosqich foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yilda Reza Zabihi, Danial Erfanitabar va Mehdi Mehranirad tomonidan chop etilgan “Task Type and Discussion of Language Form in L2 Pair Interaction” tadqiqotida topshiriq turi juftlikdagi muloqotga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan [6]. Tadqiqotchilar turli topshiriqlar o‘quvchilarning tilga oid muammolarni muhokama qilishi va yechim topish faolligiga turlicha ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Bu natija hamkorlikdagi topshiriqlarni tanlashda ularning mazmuni va maqsadini aniq belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, darslarda savol-javob, muammoli vaziyatga yechim topish (case study) va tinglangan matn asosida fikr bildirish kabi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Hamkorlikdagi topshiriqlarni tashkil etishda o‘quvchilarning shunchaki bir guruhda ishlashi emas, balki umumiy kommunikativ maqsadga erishish uchun o‘zaro axborot almashishi asosiy metodik mezon bo‘lishi lozim. Topshiriq mazmuni har bir ishtirokchini suhbatdoshini diqqat bilan tinglashga, zarur axborotni aniqlashtirishga va o‘z fikrini tushunarli shaklda ifodalashga yo‘naltirishi kerak. Topshiriqlarni loyihalashda o‘quvchilarning til tayyorgarligi, mavzuga oid lug‘at boyligi va muloqotda ishtirok etish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Shuningdek, topshiriqning maqsadi, bajarilish tartibi va kutilayotgan natijasi oldindan aniq belgilanishi, juftlik yoki guruh a’zolarining vazifalari esa har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashi lozim.

Johnson va Johnsonning hamkorlikda o‘qitish nazariyasida o‘zaro ijobiy bog‘liqlik, individual mas’uliyat va bevosita muloqot samarali hamkorlikning muhim shartlari sifatida talqin etiladi [3]. Umumyevropa til kompetensiyalari doiraviy dasturining 2020-yilgi Companion Volume nashrida ham til faoliyati tinglash va gapirish kabi alohida ko‘nikmalar bilangina cheklanmay, o‘zaro muloqot va hamkorlik jarayonlari bilan bog‘liq holda yoritiladi [7]. Merrill Swain, Linda Brooks va Agustina Tocalli-Beller (2002) ham o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning birgalikdagi muloqoti hamda muammolarni hamkorlikda hal qilishi ikkinchi tilni o‘zlashtirishga yordam berishini ko‘rsatgan [8].

Mazkur tezisning maqsadi ingliz tili darslarida hamkorlikka asoslangan topshiriqlar orqali yuqori sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tinglash va gapirishning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish, juftlik hamda kichik guruhlarda bajariladigan topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini ko‘rib chiqish va ularni tashkil etishga doir metodik tavsiyalarni shakllantirish vazifalari belgilandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan foydalanish yuqori sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Juftlikda va kichik guruhlarda bajariladigan savol-javob, fikr almashish, tinglangan matnni muhokama qilish hamda muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim topish kabi topshiriqlar o‘quvchilarni mazmunli muloqotga jalb etish imkonini beradi. Bunda o‘quvchi suhbatdoshining fikrini anglash, unga munosabat bildirish va o‘z qarashlarini tushunarli ifodalashni birgalikda mashq qiladi.

Hamkorlikdagi topshiriqlarning samaradorligi ularning aniq maqsad asosida tanlanishi, o‘quvchilarning til tayyorgarligiga moslashtirilishi va har bir ishtirokchining individual mas’uliyati ta’minlanishiga bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchi guruh ishini tashkil etishda vazifalarni to‘g‘ri taqsimlashi, barcha o‘quvchilarga fikr bildirish imkoniyatini yaratishi va ularning o‘zaro tinglash faoliyatiga ham e’tibor qaratishi lozim. Baholashda faqat yakuniy javobni emas, balki tinglangan axborotni tushunish, muloqotda ishtirok etish va umumiy natijaga hissa qo‘shish jarayonini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Demak, hamkorlikdagi topshiriqlarni dars jarayoniga maqsadli va izchil kiritish tinglash hamda gapirishni alohida mashqlar sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi nutqiy faoliyat turlari sifatida tashkil etishga imkon beradi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning ingliz tilida o‘zaro fikr almashishi va muammolarni birgalikda hal etishiga sharoit yaratib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tavil, Z. M. (2010). Integrating listening and speaking skills to facilitate English language learners’ communicative competence. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 9, 765–770.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning.

4. Komilova, M. A. (2025). 10–11-sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning o‘rni. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal.

5. Axmedova, N., & Abdusaidova, G. (2026). Iqtisodiyot talabalari uchun ESP darslarida hamkorlikda o‘qitishning (Collaborative Learning) o‘rni. Tamaddun Nuri.

6. Zabihi, R., Erfanitabar, D., & Mehranirad, M. (2022). Task type and discussion of language form in L2 pair interaction. English Teaching & Learning.

7. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe Publishing.

8. Swain, M., Brooks, L., & Tocalli-Beller, A. (2002). Peer–peer dialogue as a means of second language learning.